

O‘ZBEKISTON BADIYIY AKADEMIYA TIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING ISHLAB CHIQLISHI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI



Mehribonu Oltiboyeva

“San’at nazariyasi va tarixi” tayanch doktoranti (PhD)
Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti

Email: oltiboyevamehribonuphd@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-06>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tizimini shakllantirish jarayoni va davlat siyosatining ushbu sohada olib borayotgan islohotlari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy ta’lim, ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va madaniy merosni asrash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, davlat siyosati, badiiy ta’lim, madaniy meros, ijodiy faoliyat, san’at tadqiqotlari.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс формирования системы Академии художеств Узбекистана и проводимые государственные реформы в этой области. Также рассматриваются основные направления государственной политики в области художественного образования, поддержки творческой деятельности и сохранения культурного наследия.

Ключевые слова: Академия художеств Узбекистана, государственная политика, художественное образование, культурное наследие, творческая деятельность, исследования в области искусства.

Abstract: This article analyzes the process of forming the system of the Academy of Arts of Uzbekistan and the state policy reforms in this field. It also examines the main directions of state policy in the field of art education, support for creative activities, and the preservation of cultural heritage.

Keywords: Academy of Arts of Uzbekistan, state policy, art education, cultural heritage, creative activity, art research.

Maqolaning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati Hozirgi davrda O‘zbekiston san’ati va madaniy merosini saqlash, rivojlantirish hamda jahon sahnasida tanitish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan badiiy ta’lim, ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va madaniy merosni asrashga oid islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda, ushbu maqola aynan O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini ilmiy tahlil qilish bilan ahamiyatlidir.

Mazkur tadqiqot san’at sohasi mutaxassisleri, tadqiqotchilar va davlat tashkilotlari uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, maqola orqali san’atni rivojlantirish yo‘nalishida olib borilayotgan tadbirlar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Ilmiy ahamiyati shundaki, maqola Badiiy akademiya faoliyatini o‘rganish bilan birga, davlat siyosati va madaniyatni qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini kompleks ravishda tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi Ushbu tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

- Tahliliy metod – O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyati bo‘yicha qonun va normativ hujjatlarning o‘rganilishi;
- Taqdim etilgan hujjatlar va hisobotlarni tahlil qilish – davlat siyosati va madaniy sohada amalga oshirilgan dasturlarni tahlil qilish;
- Tarixiy yondashuv – akademiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish;

- Taqqoslash usuli – O‘zbekiston Badiiy akademiyasining jahon san’at akademiyalari bilan solishtirish orqali natijalarni baholash.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining boy badiiy merosi bilan jahon san’ati va madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shgan qadimiy sivilizatsiya o‘chog‘i sifatida milliy badiiy an’analarining o‘ziga xosligini saqlab kelayotgani dunyoning yetakchi san’at mutaxassislari tomonidan e’tirof etilgan.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil topganidan beri o‘zbek tasviriy va amaliy san’ati hamda dizayn yo‘nalishlarini yanada rivojlantirish, xalqimizning ushbu nafis san’atlarga bo‘lgan estetik ehtiyojini qondirish, keng yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ularga shart-sharoit yaratish, badiiy salohiyatini oshirish, zamon talablariga mos badiiy ta’lim tizimini keng yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq vazifalarni hal etib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida san’at va madaniyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, 1997-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Badiiy akademiyasi badiiy ijodni rivojlantirish, san’atni ommalashtirish va yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu maqolada akademiya tizimini shakllantirish jarayoni, davlat siyosatining asosiy tamoyillari va istiqbollari o‘rganiladi.

Badiiy akademiya o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Badiiy akademiyasini tashkil etish haqida» 1997 yil 23 yanvardagi PF-1701-son Farmoniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3219-son qaroriga muvofiq amalga oshirib kelmoqda. [2], [1]

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atini yanada rivojlantirish, shaxsiy va ijodiy ko‘rgazmalar uchun keng imkoniyatlar yaratib berish hamda ijodkorlarning badiiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, jahondagi yetakchi badiiy akademiyalar, ushbu yo‘nalishdagi ta’lim muassasalari, tashkilotlar, atoqli madaniyat va san’at arboblari bilan ilg‘or tajribani almashish maqsadida har tomonlama ijodiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, ijodkorlar va iste’dodli yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy muhofaza qilish, xalqimizning boy madaniy merosini, tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn an’analarini rivojlantirish Badiiy akademiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Ijodiy, ta’lim, ilmiy va targ‘ibot-tashviqot yo‘nalishlarida keng ko‘lamda ko‘rgazmalar tashkil etish orqali milliy san’atimiz yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitish, badiiy ta’limning izchilligini kuchaytirish, jahondagi ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, tasviriy va amaliy san’at, dizayn yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish ishlarini amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyati yuzasidan o‘tgan 2017-2018 yillarda tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn sohasini takomillashtirish va yanada rivojlantirishga doir bir qator ishlar amalga oshirildi. Sohaga oid “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 3219-son Qarori; Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 957-sonli; “Davlat mulki ob’ektlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 122-sonli qarorlari; O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining moddiy texnik bazasini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 noyabrdagi I265-f-son farmoyishi qabul qilindi. . 2018 yil 6 martda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasining haqiqiy a’zolarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi № I81 – son qarori, 2018 yil 27 iyulda esa Vazirlar Mahkamasining “Alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga kirish test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” №588-son qarori tasdiqlanib, ushbu qaror va farmoyishlar ijrosi doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi. [1]

Akademiya tarkibida san’at ta’lim muassasalari, galereyalar va ijodiy uyushmalar faoliyat yuritadi. Ushbu muassasalar san’atkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini

rivojlantirish va madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi. Badiiy akademiya huzurida joylashgan “Ijod” uyushmasi, “San’at” jurnali ham ushbu tizimning muhim qismi hisoblanadi. [4]

Akademiya tarkibida quyidagi ta’lim tashkilotlari va muassasalar faoliyat yuritadi:

- Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti – oliy ta’lim muassasasi bo’lib, tasviriy san’at, dizayn va san’atshunoslik yo’nalishlarida mutaxassislar tayyorlaydi.

- Respublika ixtisoslashtirilgan san’at maktablari – professional san’at ta’limini yo’lga qo’yish maqsadida tashkil etilgan o’quv muassasalari.

- Badiiy ijodkorlar uyushmalari – san’atkorlarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan birlashmalar.

Shuningdek, akademiya tarkibida san’at va madaniyatga oid muhim muzeylar ham mavjud:

- O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Markaziy ko‘rgazmalar zali – mahalliy va xalqaro ko‘rgazmalar o‘tkaziladigan asosiy maydon.

- O‘zbekiston Tasviriy san’at galereyasi – O‘zbekiston va jahon san’ati namunalari to’plangan muhim muzeylardan biri.

- Kamoliddin Behzod nomidagi Davlat san’at muzeyi – milliy va jahon tasviriy san’ati yutuqlarini namoyish etuvchi ilmiy-ma’rifiy markaz.

- Ijodkorlar uchun mo’ljallangan san’at ustaxonalari – yosh ijodkorlar va professional rassomlar uchun yaratilgan maxsus ijodiy muhit.

Davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari Davlat siyosatining O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi roli quyidagi asosiy yo’nalishlarda ko‘rinadi:

1. Badiiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot ishlari

- San’at oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish.

- Rassomlik va dizayn yo’nalishida innovatsion yondashuvlarni joriy etish.

- Ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish. [3], [8]

Quyidagi qonun hujjatlari O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish to’g’risida:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san’atni rivojlantirish to’g’risida"gi 2018-yil 26-iyundagi PF-5464-sonli Farmoni.

- "O‘zbekiston Respublikasida san’at va madaniyat muassasalarini qo’llab-quvvatlash va ularning faoliyatini rivojlantirish to’g’risida"gi 2020-yil 5-iyundagi PQ-4743-sonli Qarori. [6]

- "Yosh san’atkorlarni qo’llab-quvvatlash dasturi" bo’yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-maydagi 312-sonli Qarori.

- “O‘zbekiston madaniy merosini saqlash va rivojlantirish to’g’risida”gi 2019-yil 15-martdagi Qonun.

- “Badiiy ijodiy tashkilotlar faoliyatini qo’llab-quvvatlash” to’g’risida 2022-yilda qabul qilingan qaror. [1]

2. Ijodiy faoliyatni qo’llab-quvvatlashda:

- Yosh iste’dodlarni rag’batlantirish dasturlarini amalga oshirish.

- Mahalliy va xalqaro san’at festivallarini tashkil etish.

- Xususiy sektor va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish kabi ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Madaniy merosni asrash va targ’ib qilishda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Muzeylar, galereyalar va san’at markazlarini modernizatsiya qilish.

- Milliy san’at an’alarini rivojlantirish va xalqaro darajada targ’ib qilish.

- Zamonaviy texnologiyalar yordamida san’at asarlarini saqlash va raqamlashtirish.

4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda:

- Chet el badiiy akademiyalari bilan tajriba almashish.

- Xalqaro grantlar va dasturlar asosida loyihalarni amalga oshirish.

• San’at sohasida O‘zbekiston brendini yaratish va targ‘ib qilish kabi muhim masalalar ko‘rib chiqilmoqda. [7]

O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tarkibidagi tashkilotlar:

- “XAMAR” xalqaro aloqalar markazi
- O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Badiiy ijodkorlar uyushmasi
- Badiiy ko‘rgazmalar direksiyasi
- «San’at» jurnali
- Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzeyi
- Toshkent fotosuratlar uyi
- Ikuo Xiroyama xalqaro madaniyat karvon saroyi

O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tarkibidagi o‘quv muassasalar :

1. Surxondaryo ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati
2. Navoiy ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati
3. Buxoro ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati
4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi ixtisoslashtirilgan san’at maktabi
5. Respublika ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati
6. Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi
7. Samarqand viloyat ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati
8. Xorazm ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati
9. Andijon ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati
10. Namangan ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati
11. Jizzax ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati
12. Qo‘qon ixtisoslashtirilgan san’at maktabi
13. Qashqadaryo ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati
14. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute
15. Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi
16. Sirdaryo ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati.

Yuqoridagi yo‘nalishlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

• O‘zbekiston Badiiy akademiyasining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi san’at rivojlanishining barqarorligini ta’minlaydi.

• Badiiy ta’lim tizimidagi islohotlar san’atkorlarning professional rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

• Ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag‘lar natijadorligi oshib bormoqda.

• Madaniy merosni saqlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar milliy san’atni kelajak avlodga yetkazish imkonini bermoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O‘zbekiston Badiiy akademiyasining shakllanishi va rivojlanishida davlat siyosatining o‘rni beqiyosdir. Badiiy ta’lim, ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, madaniy merosni asrash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy san’atning barqaror taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu sohadagi davlat siyosati yanada kengayishi va innovatsion loyihalar bilan boyitilishi kutilmoqda.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasini tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar:

1. Badiiy ta’lim tizimini takomillashtirish – zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish va xalqaro tajribalarni o‘rganish.

2. Ijodiy loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish – san’atkorlar uchun grant va loyihalarni ko‘paytirish.

3. Madaniy merosni yanada targ‘ib qilish – milliy san’at durdonalarini xalqaro miqyosda namoyish etish.

4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – xorijiy san’at akademiyalari va muassasalari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari (2018-2022).
2. O'zbekiston Badiiy akademiyasi rasmiy hujjatlari (1997-2023).
3. San'at va madaniyat sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar (2015-2023).
4. Xalqaro va mahalliy san'at nashrlari (2010-2023).
5. Madaniyat vazirligi hisobotlari va statistik ma'lumotlari (2019-2023).
6. "O'zbekiston Respublikasi san'at va madaniyat qonunchiligi" to'plami (2020).
7. "Madaniyat va san'atni rivojlantirish strategiyasi" bo'yicha rasmiy hisobotlar (2021-2023).
8. O'zbekiston Badiiy akademiyasining ilmiy nashrlari va tavsiyalari (2017-2023).